

JIZZAX VILOYATI AGROSANOAT KOMPLEKSI: TARMOKLAR TARKIBI VA GEOGRAFIYASI

Qurbonov Islom Avaz o‘g‘li

Tayanch so‘zlar: *Sanoat, agroiqtisodiyot, intensiv, rezident, maxsus industrial zona, agrar-industrial, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot,*


Jizzax viloyati o‘zining mintaqaviy iqtisodiy tuzilmasiga ko‘ra rivojlanib borayotgan agrar-industrial hudud hisoblanadi. Uning hissasiga respublika yalpi ichki mahsuloti qiymatining 2,2 foizi, sanoat ishlab chiqarishning 1,3 foizi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarning 5,0 foizi, chakana savdo aylanmasining 3,2 foizi va pullik xizmatlarning 2,3 foizi, eksportning 10,2 foizi va importning 1,0 foizi to‘g‘ri keladi. Bu nisbiy raqamlar viloyatning demografik salohiyati bilan taqqoslaganda (4,0%) vaziyat yanada oydinlashadi. Viloyatning faqat agroiqtisodiyot tizimida ahvol bir muncha yaxshiroq.

Jizzax viloyatini agrosanoat kompleksini yirik ikki tarmoqqa ajratishimiz mumkin bular: qishloq xo‘jaligi hamda sanoat. Qishloq xo‘jaligi turli tarmoqlarga ixtisoslashgan bo‘lib u Jizzax viloyati iqtisodiyotining yetakchi tarmog‘i hisoblanadi. Viloyatda paxta, chorvachilik, bog‘dorchilik, lalmikor dehqonchilik, asalsrichilik, kartoshka, sabzavot, poliz mahsulotlarni yetishtirishga ixtisoslashgan. Dehqonchilikning hissasi 48 foiz bo‘lib bu nisbat ob-havo, iqlim sharoitlari hamda mamlakatimizning agrar siyosati ta‘sirida o‘zgarib turadi. Mintaqada jami qishloq xo‘jaligida foydalanadigan yerlar 1266,3 ming gektarga teng. Shundan 22, foizi sug‘ariladigan yerlar. Bundan xulosa qilish mumkinki viloyatda intensiv ravishda qishloq xo‘jaligi, xususan sug‘arma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlari bir muncha cheklangandir. Sug‘ariladigan yerlar ulushi ayniqsa tog‘ va tog‘ oldi hudularda joylashgan Forish, Zomin, Baxmal, G‘allaorol, Yangiobod qishloq tumanlarida bir muncha oz. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘rish sur‘atlari YAHM o‘rishida asosiy omil bo‘lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ining o‘rish sur‘ati 104,2 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 55,1 foiz), sanoat – 103,7 foiz (10,8 foiz), qurilish – 103,5 foiz (8,3 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 90,3 foiz (5,9 foiz), tashish va

saqlash, axborot va aloqa – 109,4 foiz (4,0 foiz) va xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar 98,9 foiz (15,9 foiz)ni tashkil qildi. Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident –institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyatbturlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi. 2020-yilda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)larining umumiy hajmi 11 218,1 mlrd. so‘mni yoki 2019-yilning shu davriga nisbatan 104,3 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 10 990,9 mlrd. So‘mni (104,3 %), ovchilik sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar 0,1 mlrd. so‘mni (88,9 %), o‘rmon xo‘jaligida 173,3 mlrd. so‘mni (101,7 %), baliqchilik xo‘jaligida 53,8 mlrd. So‘mni (104,9 %) tashkil qildi. Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lari hajmining o‘sishi asosan dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada ortishi bilan bog‘liqdir. Xususan yuqori o‘shish sur‘atlari Do‘stlik (116,5 %), Mirzacho‘l (111,0 %) va Paxtakor (109,7 %) tumanlarida kuzatildi. Shuningdek, o‘z navbatida Jizzax shahar (100,2 %) va Yangiobod (100,1 %) tumanida past o‘shish sur‘atlari kuzatildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining tarkibiy tuzilishida eng yuqori ulush dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri keladi (umumiy hajmga nisbatan 72,2 foiz). Viloyat qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i — paxtachilik. Paxta ekini maydoni viloyatdagi sug‘oriladigan yer maydonining asosiy qismi (110 ming ga)ni tashkil etadi. Viloyat qishloq xo‘jaligi ekinlari jami maydoni foiz xisobida berilgan (4-rasm). Viloyatning 12 tumanidan 10 tasida paxta ekiladi. 1994-yildan Jizzax viloyatida g‘alla ekiladigan maydon keskin oshirildi. 2000-yilda 317,7 ming t g‘alla tayyorlandi. G‘allachilikni rivojlantirish uchun tabiiy sharoitlar va boshqalar imkoniyatlar mavjud, Viloyat qishloq xo‘jaligida pillachilik ham salmoqli o‘rin tutadi. Joylarda yiliga 440—480 t pilla yetishtirish imkonini beradigan tabiiy resurslar yaratildi. Qishloq xo‘jaligida kartoshka, poliz, sabzavot, uzum, ho‘l meva yetishtirish bilan ham shug‘ullaniladi. Bir-yilda 25—30 ming t kartoshka yetishtiriladi. Poliz va sabzavotdan-yiliga o‘rtacha 70 ming t dan hosil olinadi. Jizzax viloyatida 9,4 ming ga dan ortiq, maydon mevali bog‘ (olma, behi, shaftoli, o‘rik, olcha, gilos, anor), 7,9 ming ga tokzor, 2,4 ming ga tutzor, 410 ga ko‘chatzor. 78,7 ming ga yer qo‘riqxonaga aylantirilgan. Qishloq

xo‘jaligida foydalaniladigan yerlar 1241,4 ming ga, shu jumladan haydaladigan yerlar 478,5 ming ga, shundan sug‘oriladigan yerlar 266 ming ga, lalmi yerlar 212,5 ming ga, yaylovlar 850 ming ga, pichanzorlar 12,5 ming ga, ko‘p yillik daraxtzorlar 21,5 ming ga. Don ekinlari 212 ming ga, paxta ekiladigan maydon 110,8 ming ga, sabzavotpoliz ekinlari 10 ming ga, ozuqa ekinlari 12,5 ming ga, 165 ming ga o‘rmonzor bor (2-jadval). Jizzax viloyatida jamoa, davlat, shirkat va fermer xo‘jaliklari mavjud. Fermer xo‘jaliklarining salmog‘i ortib bormoqda. Viloyat qishloq xo‘jaligida chorvachilik aloxida o‘rin tutadi. Barcha xo‘jaliklarda 280 mingdan ziyod qoramol, 800 mingdan ko‘proq qo‘y va echki, qariyb 15 ming ot, 410 mingga yaqin parranda boqiladi.

Viloyat qishloq xo‘jaligi ekinlari jami maydoni



4-rasm. Viloyat qishloq xo‘jaligi ekinlari jami maydoni

Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzilgan

Jizzax viloyati sanoati uncha rivojlanmagan. Faoliyat ko‘rsatayotgan jami sanoat korxonalarining soni 1170 ta, shu jumladan, yirik sanoat korxonalari 19 ta. Bu makroiqtisodiy sohada 7,2 ming kishi ishlaydi. Tarmoqlar tarkibida yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchilik qiladi.

Jizzax viloyati umumiy yer maydoni tarkibida qishloq xo‘jaligi yerlarining taqsimlanishi

(ming ga hisobida)

/r	M a'mur iy birlikl ar (qishl oq tuman lari)	U mu m- iy yer may - don i	Q/ X ekinla ri ekiladi -gan maydo n (ming 388ga)	K o'p yillik darax t zorla r jami		P icha n- zor va Yay lov- lar	Q ish- loq xo'j a- ligi yer tur- lari	T omor -qa yerla r va bog' dor- chili k sabza -bot uyus hma yerla ri	M elio - rati v quri l-ish xola ti- dagi	J ami o'rm on- zorl ar	o' ta - zo rl ar	B osh -qa yer lar
	Ar nasoy	⁴ 927 3	31 388	5 86		3 982	³ 595 6	9 38	6 40	7 41		¹ 09 98
	Ba xmal	¹ 864 37	35 693	7 364	² 60 1	6 077 3	¹ 064 31	7 710		5 576 2		¹ 65 34
	G' allaor ol	¹ 948 52	90 677	4 203	¹ 17 9	7 218 5	¹ 682 44	3 713		2 558		² 03 37
	Sh. Rashi dov	¹ 320 31	48 037	1 642	⁷ 12	3 004 3	8 043 4	3 601	7 91	1 827		⁴ 53 78
	Do 'stlik	⁴ 486 9	33 304	5 50			³ 385 4	1 037	6 9	4 50		⁹ 45 9
	Zo min	² 666 49	57 494	2 437	³ 56	1 204 33	¹ 807 20	3 843	9 24	5 660 8		² 45 54

	Za rbdor	⁷ 096 6	⁵² 515	⁸ 19	¹ 17 7	² 414	⁵ 692 5	² 788	¹ 671	³ 52	⁷	⁹ 13 3
	Mi rzach o‘l	⁴ 784 8	³⁰ 862	⁷ 70	² 73	³ 610	³ 551 5	¹ 029	¹ 66	⁶ 55		¹ 04 83
	Za farobo d	⁵ 215 1	²⁶ 549	⁵ 92		⁴ 727	³ 186 8	¹ 447	³ 21	⁴ 506		¹ 40 09
0	Pa xtakor	³ 774 1	²⁷ 082	² 60			² 734 2	¹ 047	⁵ 54	⁵ 87		⁸ 21 1
1	Fo rish	⁹ 564 76	²¹ 187	¹ 133	¹ 91 7	⁴ 155 48	⁴ 397 85	² 522		³ 960 2		⁴ 74 56 7
2	Ya ngiob od	⁷ 213 1	³³ 811	¹ 942	³ 19 3	² 469 5	⁶ 364 1	³ 446		⁵ 7	⁶	⁴ 96 1
3	Jiz zax sh.	⁹ 640	¹⁶ 18	² 9		¹ 823	³ 470	¹ 374		⁵ 0		⁴ 74 6
	Jami	² 121 064	⁴⁹ 0217	² 2327	¹ 14 08	⁷ 402 33	¹ 264 185	³ 4395	⁵ 136	¹ 637 55	³	⁶ 53 42 0

Jadval O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzildi.


Mazkur ikki tarmoq viloyat yalpi sanoat mahsulotining 2/3 qismini beradi. Akkumulyatorlar Jizzax akumlyator zavodida, un mahsulotlari Jizzax va Do‘stlik shaharlarida joylashgan don mahsulotlari chiqariladi. Paxtani qayta ishlash zavodlari paxta yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq tumanlari markazlarida joylashgan (Paxtakor, Do‘stlik, Mirzacho‘l). Viloyat sanoati akkumulyator, plastmassa

mahsulotlari, trikotaj buyumlar, ohak, gips, paxta yog‘i, un kabilarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ayni vaqtda bu yerda elektr energetika bazasi nihoyatda sust rivojlangan; elektr energiyani Sirdaryo IES dan oladi. Tog‘-kon sanoati Qo‘ytosh (volfram, molibden), Marjonbuloq (oltin), Uchquloq (qo‘rg‘oshin, rux) va boshqa “resurs” shaharchalarda tashkil etilgan. Kimyo, turli hajmdagi plastmassa trubalar, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qishloq va yo‘l xo‘jaligi mashinalarini ta‘mirlash, akkumulyatorlar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadi. Viloyatda qurilish materiallari sanoati ham birmuncha rivojlangan (Jizzax, Dashtobod, G‘allaorol). Zafarobod tumanida yirik sement zavodi ishga tushirilgan. 2013-yilda uning qurilishiga 120 mln AQSH dollari sarflangan. Jizzax shahri viloyat sanoati mahsulotining 36,0 foizini va Do‘stlik tumani 19,3 foizini ta‘minlaydi. Bu soha Zomin va Paxtakor tumanlarida ham ko‘zga ko‘rinarli darajaga ega. Qolgan qishloq tumanlarida esa sanoat ishlab chiqarishi rivojlanmagan (ayniqsa Mirzacho‘l va Yangiobod tumanlarida). Xalq iste‘mol mollarining 46,6 foizi birgina viloyat markazi – Jizzaxga to‘g‘ri keladi. Qishloq tumanlari orasida Do‘stlik hamda Jizzax va G‘allaorol, Baxmal tumanlari ajralib turadi. Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 40,4% ulushini), Do‘stlik (15,1%) va Paxtakor (7,9%) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Hududlar miqyosida olib qaralganda, sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi jizzax shahrida (143 ta) va Sharof Rashidov tumanida (81 ta) joylashgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha korxonalar ro‘yxati berilgan (5-rasm).

Umuman olganda esa, viloyat sanoatining tarmoqlar va hududiy tarkibi uncha rivojlanmagan. Binobarin, bu yerda mavjud xom ashyo va mineral resurslardan, boy mehnat zahiralaridan samarali foydalanish asosida sanoat ishlab chiqarish salohiyatini yuksaltirishga katta e‘tibor qaratish lozim. Bu borada mahalliy lashtirish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiyalash mintaqqa sanoatini rivojlantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, “Jizzax” maxsus industrial zonasining barpo etilishi mintaqqa sanoat salohiyatini keskin ko‘taradi. Viloyat tabiiy sharoiti, agroiklim va mineral xom ashyo resurslarining hududiy xususiyatlari bu yerda 2 ta asosiy tabiiy — xo‘jalik rayonlarining shakllanishiga olib kelgan. Birinchisi yoki Yuqori rayon tog‘ va tog‘ oldi hududlarda joylashgan Zomin, Baxmal, G‘allaorol, Forish, Jizzax va Yangiobod tumanlarini o‘z tarkibiga oladi.

Rayon viloyat umumiy maydonining 87,8 foizi va aholisining 3/4 qismiga yaqinini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu hududda lalmikor dehqonchilik, xususan, bug‘doy yetishtirish, shuningdek, bog‘dorchilik, asalarichilik, kartoshka, jun va sut-go‘sh tchorvachiligi, rekreatsiya va turizm rivojlangan. Rayon mintaqa yalpi sanoat va qishloq ho‘jalik mahsulotining yarmidan ortig‘ini ta‘minlaydi. Bu yerda viloyat markazi — katta shahar va sanoat markazi Jizzax shahri joylashgan. Ikkinchi — Quyi rayon asosan pasttekisliklarda joylashgan, yangi yerlarni o‘zlashtirish negizida tashkil topgan Arnasoy, Do‘stlik, Zarbdor, Zafarobod, Mirzacho‘l va Paxtakor qishloq tumanlaridan iborat. Rayon viloyatning paxtachilikka ixtisoslashgan hududi hisoblanadi.

Shuningdek, bu yerda sabzavotchilik va poliz mahsulotlarini yetishtirish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Keltirilgan ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, viloyatda sanoat va qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Do‘stlik, Zafarobod, Paxtakor tumanlari yuqori, Yangiobod, G‘allaorol, Mirzacho‘l tumanlarining ko‘rsatkichlari esa, past darajada. XIM ishlab chiqarish Jizzax shahri va Do‘stlikdan tashqari barcha tumanlarda viloyat darajasidan kamligini ko‘rish mumkin. Aholiga pullik xizmat ko‘rsatishda Do‘stlik, Jizzax, Mirzacho‘l tumanlari biroz yuqori bo‘lsa, Yangiobod tumanining ulushi ancha oz. Qolgan tumanlar iqtisodiy salohiyati uncha yuqori emas.



1-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashqilotlarning ulishi, % da

Manba: Jizzax viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Viloyat agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligini quydagi tarkiblarga bo'lish mumkin, dehqonchilik va chorvachilik. Dehqonchilik o'simlik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun madaniy o'simliklarni yotishtirish; qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri. Aholi oziq-ovqat mahsulotlari, dalachilik, sabzavotchilik, polizchilik, bog'dorchilik va boshqa tarmoqlarga bo'linadi. Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2020-yilda 3 970,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta'minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2019-yilning tegishli davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil etdi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko'proq qayta ishlash sanoatiga to'g'ri kelib, uning ulushi 91,2 foizni tashkil etdi (2019-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 106,4 %). Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash ulushi 5,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 123,6 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish ulushi 1,0 foizni (ishlab chiqarish indeksi 108,3 %), tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 2,2 foizni (ishlab chiqarish indeksi 98,0 %) tashkil qildi[39].

Hozirgi Jizzax viloyati qadimdan Buyuk ipak yo'lida joylashganligi bu xududda savdo madaniyatining tez rivojlanishiga ta'sir etdi. Ilk o'rta asrlarda jahon bozorida Jizzaxda jun va teridan tayyorlangan mahsulotlarga talab katta bo'lgan. 8—9-asrlarda kulollik, zargarlik, aravaso'zlik kabi mahallalarining mavjudligi milliy hunarmandchilikning o'sha davrlarda rivojlanganligidan darak beradi.

Viloyatdagi ishlab chiqarish sanoat tarmoqlarini hududiy jihatdan Jizzax, G'allaorol, Dashtobod, Do'stlik shaharlaridagi sanoat tarmoqlariga ajratish mumkin. Bular foydali qazilmalarni qazib chiqarish, paxtachilik va irrigatsiya bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar, paxtani qayta ishlash, elektrotexnika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, kimyo, yengil sanoat (ip yigiruv, paypoq to'qish, ustki trikotaj fabrikalari), oziq-ovqat sanoatidir. Viloyatda qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari, xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi korxonalarning salmog'i sezilarli. Shulardan Dashtobod qurilish materiallari, Zomin oniks, Baxmal marmar,

g‘isht zavodlari, Dashtobod, Do‘stlik un kombinatlari, Jizzax mebel fabrikasi ishlab turibdi. Jizzax viloyatida konchilik tarmog‘i ham rivojlangan. Marjon buloq oltin koni, Qo‘ytoshdagi ohak, vollastonit, volfram, Ko‘tarmada ohak, Uchquloqda qo‘rg‘oshin konlari faoliyat ko‘rsatmoqda. 1991 — 2001-yillar davomida Jizzax viloyatida jahon andozasi darajasidagi mahsulotlar ishlab chiqaruvchi zamonaviy qo‘shma korxonalar tashkil qilindi. Viloyatda qo‘shma, kichik va xususiy korxonalar mavjud. Qo‘shma korxonalarda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining salmog‘i tobora ortib bormoqda. „Jibri“ (O‘zbekiston — Buyuk Britaniya) qo‘shma korxonasi yiliga 50 ming t chigitni qayta ishlab o‘simlik yog‘i ishlab chiqaradi, „Kumush tola“ (O‘zbekiston—Tojikiston) qo‘shma korxonasi-yiliga 80 t dan ziyod ipak tolasini tayyorlaydi, „Paxta interneyshnl“ (O‘zbekiston—Suriya) qo‘shma korxonasi yiliga 10 ming t dan sellyuloza ishlab chiqarish quvvatiga ega, „Baxmal sharob“ (O‘zbekiston—Polsha) qo‘shma korxonasida mineral suvi qadoqlanadi. Shuningdek, paxta tolasidan eshilgan ip tayyorlovchi „Irtartekstil“ (O‘zbekiston—Pokiston), yog‘- moy va sovun ishlab chiqaruvchi „Madina“ (O‘zbekiston—Xitoy), „Jizzax—Telekom“ (O‘zbekiston—Indoneziya), Qo‘ytosh shaharchasida „Vollastonit“ ishlab chiqarish sexi (O‘zbekiston—Rossiya), sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi „Vostok LTD“, „Belogorsk“ qo‘shma korxonalarining hissasi sezilarlidir. Yiliga 1 mln. dona akkumulyator tayyorlovchi „O‘zeksayd“ qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatadi. „Zilolateks“ aksiyadorlik jamiyatida 250 t nitron matosi ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi.

Adabiyotlar ruyhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasi va qishloq xo‘jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi -T., 3175., 2019.
2. Ro‘ziyev A. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish asarlari.O‘quv qo‘llanma. –Toshkent.:”Universitet”, 1990.-10b
3. <http://www.stat.uz>[O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi rasmiy veb sayti].